



KASBIY RIVOJLANISH PSIXOLOGIYASINING KONSEPTUAL JIHATLARI

Tuychiyeva Saodat Meliqo'ziyevna

Psixologiya fanlari bo'yicha fan doktori (DcS),

Toshkent amaliy fanlar universiteti, Gavhar ko'chasi 1-uy, Tashkent 100149

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14763932>

Kalit so'zlar: professional kompetentlik, kommunikativlik, tajriba, qobiliyat, ijtimoiy ongliklik, fundamental, integratsiyalashuv, kasbiy fidoyilik.

Annotatsiya: Kasbiy kompetentsiyani shakllantirish professional psixologni tayyorlashdagi eng qiyin vazifalardan biridir. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, bu universitetda bo'lajak psixologlarni kasbiy tayyorlash sharoitida amalga oshirish deyarli mumkin bo'lmagan vazifadir. Maqolada psixologning ijtimoiy-professional kompetentsiyalari orasida psixologik va konsultativ kompetentsiya alohida o'rin tutadi

Key words: professional competence, communication, experience, ability, social awareness, fundamental, integration, professional dedication

Abstract: The formation of psychological and advisory competence is one of the most difficult tasks in training a professional psychologist. More specifically, this is a task that is almost impossible to implement in the conditions of professional training of future psychologists in universities. In the article, a special place is occupied by the methodology of socio-professional competence of a psychologist and advisory competence.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, общение, опыт, способности, социальная осведомленность, фундаментальность, интеграция, профессиональная преданность делу

Аннотация: Формирование профессиональной компетентности является одной из сложнейших задач подготовки профессионального психолога. Если говорить конкретнее, то это задача, которую практически невозможно реализовать в условиях профессиональной подготовки будущих психологов в ВУЗах. В статье особое место занимают методика социально-профессиональной компетентности психолога и консультативная компетентность.

1 KIRISH.

Professional kompetensiya- insonning qadryatlar olamiga kirishi xisoblanib, aynan unda inson mutaxassis sifatida o'zini angalaydi va yangilik yaratadi. Shuningdek, professional kompetensiya insondagi soxaga oid bilim, ko'nikma, malaka, tajriba, qobiliyat, iste'dod, professional fazilatlar, motivatsiya hamda qator xarakteralogik sifatlar mazmuniga ham javob beruvchi fenomen hisoblanadi. Uni tadqiq etish kasb va shaxs haqida o'ta ahamiyatli, qiziqarli ma'lumotlarni aniqlashga imkon berishi extimoldan xoli emas.

2 MAQSAD VA UNI ASOSLASH.

Professioanlizm xususiyati talabalarda kasbiy faoliyatini rivojlantiruvchi va rag'batlantiruvchi psixologik omillardan biri sanalib, unda talabalar shaxsiga xos o'ziga xos xarakteralogik xususiyatlar ya'ni ma'naviy-axloqiy barkamollik, fidoiylilik, hayotiy qadryatlarga sodiqlik, ijtimoiy ongliklik, o'z-o'zini nazorat qilish, burch va majburiyatlarini oqilona anglash kabi psixologik sifatlar mujassamdir. Talabalar shaxsida o'quv faoliyatiga nisbatan mas'uliyatlikni ro'yobga chiqarish imkoniyatlari avvalombor, ta'lim muhitida o'quv mashg'ulotlarini samarali tashkil etishdan boshlanadi. Mashg'ulotlarning murakkablik xarakteri talabalarning aqliy, hissiy irodaviy, kommunikativ soxalarining rivojiga ham keng ta'sir etadi. L.I.Dementiyning so'zlariga ko'ra, talabalarni professional kompetentlikni ro'yobga chiqarish ishlari, ularda quyidagi ko'nikmalarni rivojlantirish orqali amalga oshiriladi.

- Atrofdagilar bilan erkin muloqot qila olish ko'nikmalari;
- Zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalana olish malakalari;
- Soxaga oid ma'lumotlar bazasiga ega bo'lish;
- Iqtisodiy va soxadagi yangiliklardan xabardorlik;
- Ta'lim to'g'risidagi qonunlar, farmonlar hamda tegishli vazirliklarning buyruq va xujjatlari mazmunidan xabardorlik;
- Xorij tillaridan birini mukammal bilish;



– Boshqalarni o'zgartirishga nisbatan psixologik tayyorgarlik va hokazo.

Bundan tashqari, kasbiy faoliyatdagi professionallik mezonlari ixtiyoriy faoliyatning ikki jihatini qamrab olishi ta'kidlangan. V.M.Borsova o'z tadqiqotlarida, o'quv faoliyatida talabalarda professionalizmni ro'yobga chiqaruvchi psixologik shart-sharoitlarning uch muhim jihatini ajratadi.

V.A.Adolfning aytishicha, bo'lajak mutaxassis psixolog talabalarning malakasini oshirishga ixtisoslashgan dasturlar ikki muhim tamoyil asosida ish yuritishi lozim hisoblanadi. Ya'ni mazkur tamoyillar umuiy va maxsus turga ajratilib, u o'z mazmunida quyidagilarni maqsad qiladi4:

I. Dinamizm tamoyili- bu ta'lim dasturlarini doimiy o'zgartirib borish va yangilab turishni nazarda tutadi;

II. Istiqbollik tamoyili- bu bo'lajak mutaxassis psixolog talabalar tomonidan turli xil ta'lim imkoniyatlari tizimini chuqur tushunishlarini xarakterlaydi;

III. Ko'p qirralik tamoyili- bu bo'lajak mutaxassis psixolog talabalarning yuqori qiziqishlar ko'lamini va talabalarning malakasi kabilarni o'z ichiga oladi;

IV. O'zaro ta'sirlashish tamoyili- bu talabalar va talabalarning o'zaro munosabatlari hamda o'quvchi-o'qituvchi o'rtasidagi muloqot jarayoni kabilar bilan tavsiflanadi.

V.A.Isayevning mulohazasiga ko'ra, kasbiy kompetensiyaga asoslangan yondashuvlarning mazmuniga ko'ra, bo'lajak mutaxassis psixolog talabalarda kasbiy ma'sulyat hissini rivojlantirish faqat o'qitish orqali emas, balki uslubiy va yangi pedagogik texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi. Buning uchun avvalo, o'qitish muhitida psixologik va pedagogik shart-sharoitlarni yaratish muhimdir. Mazkur shartlarga quyidagilar kiradi:

- Mashg'ulotlarda o'qituvchining ro'lini o'zgartirish- bunda dastlab o'qituvchi bilimlarini yetkazish vazifasini bajaradi, o'quvchilarga nazriy ma'lumotlarni tushuntiradi yoki talabalarning shaxsiy rivojlanishiga hissa qo'shadigan aktyor ro'lini bajaradi;

- Talabalarning kasbiy faoliyatini rag'batlantiradigan innovatsion usullarini joriy etish. Bu o'qituvchining tajriba to'plashi va almashishi, ishdagi qiyinchiliklarni yengish va ijodiy loyihalash kabi qobiliyatlar orqali tushuntiriladi;

- Talabalar kasbiy kompetensiyalarining ko'plab elementlariga va ularning individual xususiyatlarini takomillashtiradigan o'qitish usullaridan foydalanish. Bunday usullarga quyidagilar kiradi: ijobiy xatolar usuli, ijodiy-muammoli, o'yin shaklidagi usullar, rolli moslashishlarni o'rganish texnikasi, g'oyalarni namoyish qilish va loyixalar metodlari va xokazo.

- Talabalarning turli xil kasbiy va hayotiy shart-sharoitlariga e'tibor berish, ta'lim maqsadlari va mehnat bozorida qo'llanilishi mumkin bo'lgan vaziyatlar o'rtasidagi bog'liklikni amalga oshirish;

- O'quv jarayonida olingan tajribalarni o'ziga hos xususiyatlariga mos keladigan va ma'lum bir kishiga hos bo'lgan individual rivojlanish xususiyatlarini ta'minlaydigan hamda tezkor baxolash operatsiyalaridan foydalana olish va xokazo. Shunday qilib, biz kasbiy vakolatlarni rivojlantirish maqsadni belgilovchi tarkibiy qism sigatifa xarakter qilishini va o'ziga xos psixologik-pedagogik xolatlarni shakllantirishda amalga oshirilishini kuzatishi mumkin.

3 ILMIY MUAMMONING TAVSIFI VA YECHIMI

Kasbiy rivojlanish psixologiyasining konseptual jihatlarini, kasbiy rivojlanishni metodologik prinsiplari (K. A. Abulxanova-Slavskaya, A. G. Asmolov, C. JI. Rubinshteynlarning shaxsga faoliyatli yondashuvi, V. A. Barabanshikov, A. I. Krupnov, B. F. Lomov, V. S. Merlin, B.G. Ananovning inson psixikasini tizimli tashkil etish tamoyili, S. L. Rubinshteynning ong va faoliyat birligi tamoyillari), kasbiy rivojlanishdagi psixologik to'siqlarga, kasbiy rivojlanishda qobiliyat va layoqatning ilmiy asoslari (Leontev A.N. (1959), Bojovich L.I. (1968), Leytes N.S. (1975), Aseev V.G. (1976), Brushlinskiy A.V. (1978), Ansiferova L.I. (1981), Kudryavsev T.V., Suxarev A.V. (1985), kasbiy rivojlanishda qobiliyat va layoqatning ilmiy asoslari hamda kasbiy o'sishda potensial va aktal imkoniyatlar (S. L. Rubinshteyn, V. N. Myasishev, B. G. Ananov) bog'liqligi taxlil etilgan. Ushbu bobda zamonaviy professional ta'lim shu kungacha tizimli, belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni bo'lajak mutaxassislarga berish vazifasini qo'ygan. Bo'lajak mutaxassis tayyorlash jarayonida kasbiy rivojlanishni «shaxs - kasb» + «shaxs – kasb egasi, mutaxassis» tizimida tashkil



etish maqsadga muvofiqligi taxlil etilgan adabiyotlar asosida aniqlangan. Kasbiy qobiliyatlar kasbiy ko'nikma va odatlar negizida bo'lajak mutaxassislarda kasbiy amaliy kompetentlikni dinamik rivojlanishi kuzatiladi. Dinamik rivojlanishning psixologik xususiyatlari "Men"-konseptsiyasi, kasbiy o'zini baholash, kasbiy qadriyalar, o'z imkoniyatlarini anglash, kasbiy talablarga adekvat javob berish va kasbiy tajribani o'zlashtirish orqali namoyon bo'ladi. Shuni ta'kidlash lozimki, bo'lajak mutaxassislarda kasbiy amaliy kompetentlikni dinamik rivojlanishi jarayoni murakkab xarakterga ega bo'lib, takomillashgan bilim, ko'nikma, malaka va qobiliyatlarda kasbiy faoliyatni samarali-progressiv dinamik o'suvchi hamda samarasiz – regressive- kasbning shaxs sifatlariga mos emasligi tufayli orqaga ketishi bilan belgilanadi.

A.K.Markova bo'lajak pedagog mutaxassisligi faoliyatining uchta jihatini:

- pedagogik faoliyat;
- pedagogik muloqot;
- mutaxassis shaxsi tomonlari mavjudligini ta'kidlaydi.


A.K.Markovanning fikricha mutaxassisning muhim kasbiy sifatleri qatorida: eruditsiya, maqsadga yo'nalganlik, ijodiy tafakkur, zukkolik, ko'tarinki kayfiyat, kuzatuvchanlik, ishonch, topqirlik, pedagogik bashorat, refleksiya (o'zini namoyon qilish) lar kiradi.

«Kasbiy shakllanish» deganda bo'lajak mutaxassisning o'zgarib boruvchi ta'lim muhitida to'g'ri yo'nalish olishiga ko'maklashuvchi qiyofa, qadriyatlarning aksi va pedagogik borliqdagi qiyofalar tizimi tushuniladi. Biroq qiyofa-ko'rinish-haqiqat modelining shakllanishi o'z-o'zidan dolzarblik kasb etmaydi.

Shaxsiy hamda kasbiy rivojlanish dinamikasining mohiyati - borliqning soddalashgan, kichraytirilgan aksini yaratish, ya'ni undagi lavhalarni yuzaga keltirish, yaratish, shakllantirishni hosil qilish hamda shiddat bilan o'zgarayotgan zamon talablariga mobil moslashishdan iborat. Ushbu bo'limda tadqiqot uchun tanlangan metodikalarning mohiyati va qo'llash samarasini ta'minlaydigan asosiy juhatlar keltirilgan. Ushbu bobda tanlangan metodikalardan biri V.V.Boykoning empativlik qobiliyatlar darajasini tashxis qilish metodikasi (Boykoning empativlik testi)dan foydalangan holda aniqlovchi tajribani o'tkazdik.

Olingab natijalarda empatiyaning ratsional kanali ($z=0,211$; $p\leq 0.01$.)ni, empatiyaning emotsional kanali ($z=0,147$; $p\leq 0.01$.)ni, empatiyaning intuitiv kanali ($z=0,191$; $p\leq 0.01$.)ni, empatiyaga sharoit yaratib beruvchi ustanovkalar ($z=0.150$; $p\leq 0.01$.)ni, empatiyaga kirirsh qobiliyati ($z=0.174$; $p\leq 0.01$.)ni, empatiyaga identifikatsiya ($z=0.154$; $p\leq 0.01$.)ni tashkil etib, ahamiyatli farq aniqlangan.

Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy amaliy kompetentligini dinamikasini ta'minlash uchun zarur kompetensiyalar keltiramiz.



1-rasm. Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy amaliy kompetentligini dinamikasini ta'minlash uchun zarur kompetensiyalar

Yuqorida qayd etilganidek bo'lajak mutaxassisni kasbiy rivojlanishining asosiy zaminini doimiy o'qishga bo'lgan layoqat, o'z-o'zini takomillashtirish va o'z ustida ishlashga bo'lgan ishtiyoq tashkil etadi.

4. YAKUNIY QISM.



Bo'lajak mutaxassislarda kasbiy amaliy kompetentlikni dinamik rivojlanishi ta'limning har bir o'quv yilida bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayon. Dinamik rivojlanishda asosiy kompetensiya-ijtimoiy kompetensiya bo'lib, talabada mutaxassis bo'lib shakllanishida asosiy ta'lim shakllari ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlardan iborat. Xususiyatlar munozarasini rivojlantirmay, bu borada taqqiqotimizda Hart skills hamda Soft skills malakalariga e'tibor qaratdik. Ilmiy-akademik hamjamiyat vakillarining fikrlariga ko'ra, kompetentsiya-bu faoliyat yuritishga tayyor bo'lgan bilimdon shaxsning predmetik sohasi, kompetentlilik esa-ma'lum sohada faoliyat yuritish uchun bitiruvchining tayyorligi natijasi sifatida ko'rinuvchi shaxsiy sifatlarining uyg'unlashuvidir.

Kasbiy tajriba va maxsus kasbiy tayyorgarlikni olish jarayonida ma'lum kasbiy qadriyatlarni amalga oshirish yoki shakllantirish sodir bo'ladi. Shuning uchun ham bo'lajak mutaxassis shaxsining kasbiy rivojlanishi sub'ektiv va ob'ektiv sharoitlari va omillari o'rtasidagi bog'liqlikni tushunish muhimdir. Bugun hech kim qaysi kasb jamiyat uchun zarur bo'ladi yoki bo'lmaydi deb aniq kafolat bera olmaydi. Ertaga qaysi ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish kerak yoki kerak emasligini ham aytish juda qiyin (Frumin, Dobryakova va boshqalar, 2018). Dunyo tadqiqotlari va ma'lumotlariga maktabga 1-sinfga borayotgan 65% bolalar vatqti kelib kasb egallash muammosi kelganda bugungi kunda mavjud bo'lmagan yangi kasblar, yangi pozitsiyalar va talablarga duch kelishlari mumkinligi qayd etilmoqda (Dall'Amico & Verona, 2015). Kasbiy ko'nikma va malakalar ta'lim muxiti shart- sharoitlari bilan uzviy bog'liq sanalib, keyinchalik ular kasbiy kompetentlik xususiyati bilan to'ldiriladi. Taxlil etilgan nazariy qarashlar yondashuvlarning mazmuniga ko'ra, oliy o'quv yurtlarida bo'lajak kadrlarni professional tarzda shakllantirish ishlarida quyidagi tamoyillarni o'z ichiga olishi lozim: Demak, oliy o'quv yurti muassasalarida professional kadrlarni tayyorlash ishlarida, yuqorida keltirilgan o'quv jarayonini tashkil etish tamoyillarga amal qilishi o'ta muhim sanaladi. Bo'lajak mutaxassis psixologlar faoliyatiga xos bo'lgan kasbiy rivojlanish omili, kasb haqidagi bilimlarning ongda integratsiyalashuvi bo'lib, u shaxsning dunyo va o'zi haqidagi bilimlar bilan tushuntiriladi.

References

1. Пахомова Е.М. Конкурс профессионального мастерства как средство повышения квалификации учителя: Дисс. канд. пед. Наук — М., 2003. — 208 с.
2. Дементий Л. И. К проблеме меры ответственности / Л. И. Дементий // Личность. Культура. Общество. - 2004. - № > 3 (№ 23). - С. 264 - 274.
3. Борцова М. В. Ответственность и факторы, определяющие ее развитие / М. В. Борцова // Информационный бюллетень Краевого учеб.-метод. центра по подготовке и повышению квалификации кадров культуры и искусства. -Краснодар, 2000. - С. 15-17.
4. Толочек В.А. Профессиональная успешность: от способностей к ресурсам (дополняющие парадигмы) / В.А. Толочек // Психология. Журнал Высшей школы экономики. - 2009. — № 3. - С. 27-61.
5. Корсунский, Е.А. Развитие психологической проницательности студентов-психологов средствами художественной литературы / Е.А. Корсунский, Н.Е. Есманская. — Воронеж : ВЭПИ, 2008.
6. Нюттен Ж. Мотивация, действие и перспектива будущего. М.:Смысл.2004. — 225 с.
7. Бодров В.А. Психология профессиональной деятельности // Современная психология: Справочное руководство. М.: ИНФРА-М, 1999. — С.248.
8. Туйчиева, С. М. (2021). Акмеолингвистический подход и оценка знаний по международным исследовательским программам в процессе подготовки будущих специалистов. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 2), 564-567
9. Туйчиева, С. М. (2017). Проблемы качества образования и совершенствования компетентности педагога. Современные социально-экономические процессы: проблемы, закономерности, перспективы (pp. 141-144).



10. Melikuzieva, T. S., & Alidzhanova, N. A. Innovative Methods of Interaction of Participants of the Educational Process. JournalNX, 546-551..